

SOLIQQA TORTISH VA MAHALLIY BOSHQARUV UYG‘UNLIGINI TA’MINLASH

Bank-moliya akademiyasi magistranti

Bafojev Farrux Jo‘raqulovich

Bafojev_f.j@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada soliqqa tortish va mahalliy boshqaruv uyg‘unligini ta’minlashdagi chora-tadbirlar, mamlakatimiz mahalliy davlat hokimiyati organlari boshqaruv faoliyatining amaldagi holati, ularning mahalliy byudjet daromadlarini ta’minlashda soliq yig‘ish jarayonlarida ishtirok etish jarayonlari tahlil qilingan. Shuningdek maqolada mahalliy budjetlar daromadlarini shakllantirishning muhim omili sanaladi. Mulkdorlar tomonidan mulkdan samarali foydalanishga erishishda soliqlar vositasidan foydalanish, mulkiy soliqlar tushumining mahalliy budjetlar daromadlaridagi ulushini oshirish borasida qator ta’sirchan chora-tadbirlar amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohatlar haqida yozilgan.

Kalit so‘zlar: soliq, soliqqa tortish, soliq tushumlari, mahalliy boshqaruv, mahalliy boshqaruv organlari, mahalliy byudjet, hududiy byudjet soliq siyosati, mahalliy ijroiya organlari, boshqaruv samaradorligi, boshqaruv tuzilishi.

Annotation: this article analyzes measures in ensuring the harmony of taxation and local government, the current state of management activities of local state authorities of our country, the processes of their participation in tax collection processes in ensuring local budget revenues. The article also lists an important factor in the formation of income from local budgets. It was written about the economic reforms under which a number of impressive measures are being taken to increase the share of property tax revenue in the income of local budgets, using the means of taxes in achieving the effective use of property by owners.

Keywords: tax, taxation, tax revenues, Local Government, Local Government Bodies, Local Budget, territorial Budget Tax Policy, local executive bodies, management efficiency, management structure.

Kirish

Mamlakat iqtisodiy salohiyatining oshib borishi bilan davlatning kuch-qudrati, uning o‘z funksiyalarini kengaytirib borish imkoniyati ortib boradi. Davlat o‘z funksiyalarini muvaffaqiyatli bajarishi uchun, shuningdek, rivojlanishning har bir bosqichida dolzarb bo‘lgan strategik maqsadlarni amalga oshirish uchun mamlakatda yaratilgan moliyaviy resurslarning ma’lum bir qismini o‘z qo‘lida to‘plamog‘i ob’ektiv zaruriyatdir. Aynan shu ob’ektiv zaruriyatning mavjud bo‘lishi davlat budjetining mavjud bo‘lishini va amal qilishini taqozo etadi. Haqiqatdan ham har bir mamlakatda

davlat (hukumat) barcha moliyaviy munosabatlarning tashkilotchisi bo'lsa-da, uning bu xislati, ya'ni mamlakatning moddiy va moliyaviy resurslarini asosiy taqsimlovchisi sifatidagi roli faqat budjetda katta kuch bilan namoyon bo'ladi.

Budjet – bu davlat va mahalliy o'z-o'zini boshqarish vazifalari va funksiyalarini moliyaviy ta'minlash uchun mo'ljallangan pul mablag'lari jamg'armalarini to'plash va sarflash shaklidir. Budjet xilma-xil munosabatlarga daxldor kategoriyadir. Uning paydo bo'lishi va rivojlanishi davlatning paydo bo'lishi va shakllanishi bilan bog'liq. Davlat budjetdan bevosita o'z faoliyatini ta'minlash vositalaridan biri hamda iqtisodiy va ijtimoiy siyosat o'tkazishning muhim unsuri tarzida foydalanadi¹.

Mahalliy hokimiyat zimmasiga tegishli huduldagi ijtimoiy-iqtisodiy masalalarni hal etishdek ma'suliyatli vazifa yuklatilgan bo'lib, amalda bu masalalar umudavlat ahamiyatiga ega vazifalar hisoblanadi. Chunki, fuqarolarning kundalik hayotidagi vazifalar qanchalik darajada ijobiy hal etilishi ularning umumiy ijtimoiy dunyoqarashiga bo'lgan munosabatida aks etadi. Mahalliy byudjetlar daromadlarini oshirish mahalliy hokimiyat organlari zimmasiga yuklatilgan vazifalarning bajarishning moliyaviy imkoniyatini mustahkamlovchi asosiy manba hisoblanadi.

Hududlardagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta'minlash, shubhasiz mahalliy boshqaruv organlarining mustahkam moliyaviy bazaga ega bo'lishni taqazo etadi. Ularning eng yirik va asosiy moliyaviy bazasi mahalliy byudjetlar hisoblanadi.

Soliqlarni yig'ishda mahalliy boshqaruvning o'rni juda kata. Mahalliy boshqaruv organlariga davlat tomonidan kafolatlar berish hamda davlat hokimiyati va mintaqa boshqaruv organlari tomonidan mahalliy hokimiyat organlariga oid qonun hujjatlariga rioya qilinishi va mahalliy boshqaruv sohasida amalda bo'lgan me'yoriy-huquqiy hujjatlarning ijro etilishini ta'minlash respublika, mintaq va mahalliy hokimiyat organlari o'rtasida vakolatlarini samarali taqsimlashning muhim shartidir².

ADABIYOTLAR SHARHI

Soliqqa tortish va mahalliy boshqaruv uyg'unligini ta'minlashning mohiyati, ularning vazifalari, xususiyatlari va undagi muammolar bo'yicha nazariy, uslubiy hamda amaliy masalalari xorijlik iqtisodchi olimlardan E.Fedorova, F.Istomina, D.Mishina, Q.Igudin, G.Govorushina, T.Dorjdeevlarning ilmiy asarlarida tadqiq etilgan.

Mahalliy iqtisodchi olimlar A.Vahobov, T.Malikov, Sh.Qiyosov, H.Xayriddinov, Z.Sirojiddinova, A.Yuldashev, N.Burxanovlarning ilmiy ishlarida soliqlar va soliqqa tortish, soliqlarning budjet daromadlarini shakllantirishdagi o'rining nazariy va ilmiy-uslubiy jihatlari o'z aksini topgan.

¹ O'zbekiston Respublikasi "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi 913-XII-son Qonuni // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son.

² Xayriddinov A.B. Mahalliy byudjetlar daromad bazalarining barqarorligini ta'minlash yo'llari. I.f.n. ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan diss. avtoreferati. –T.: 2011. –b. 13.

Fedorova va boshqalar ta'kidlashicha, munitsipal byudjet daromadlarining tushumi hajmiga alohida soliqlar bo'yicha soliq bazasi, soliq stavkasi va hududiy byudjetlarga meyoriy ajratmalar ta'sir etadi. Mahalliy boshqaruvning daromadlar bazasini mustahkamlash ikki yo'nalishda, ya'ni byudjet va soliq qonunchiligini takomillashtirish yo'li bilan bazaviy ta'minlash va mahalliy soliqlar darajasini oshirish orqali amalga oshirilishi lozim. Soliqlarni markaziy va mahalliy byudjetlar o'rtasida taqsimlanish bilan bog'liq muammolarni yechimida quyidagi prinsipial yondashuvlarni ajratib ko'rsatish mumkin:

- birinchisi, soliq va soliq vakolatlarini taqsimlanishi;
- ikkinchisi, soliq bazasidan birgalikda foydalanish (soliq to'lovchilar bitta soliqni turli darajadagi byudjetlarga to'lashi);
- uchinchisi, soliq tushumlaridan daromadlarni taqsimlanish ulushi (meyorlar asosida soliqlarning turli darajadagi byudjetlar o'rtasida taqsimlanishi)³.

Istomina, Mishina tomonidan soliq tushumlarini turli darajadagi byudjetlar o'rtasida taqsimlanishi yondashuvi yuzasidan bahs-munozaralar mavjudligi ko'rsatib o'tilgan. Jumladan, turli darajadagi byudjetlar o'rtasida taqsimlanishi, hududlarning o'z daromadlar bazasini oshirishga rag'batlantirmaydi, hududlar o'z byudjetlarini daromadlar bazasiga ta'sir ko'rsatish uchun tegishli vositalarga ega bo'lmaydi, hududiy organlar soliq qonunchiligidagi o'zgarishlar tufayli mahalliy byudjetlardagi yo'qotishlarni kompensatsiya qilish bo'yicha choratadbirlar tizimini ishlab chiqishlari lozim. Qoidaga ko'ra, byudjetni tartibga solishda ikki tarkibiy qismni ajratib ko'rsatadi, ya'ni tartibga soluvchi soliqlar (vaqtlar asosida yuqori byudjetlardan meyoriy ajratmalar) va yuqori turuvchi byudjetlardan moliyaviy yordamlar. Byudjetni tartibga solishni soliqlar hisobiga amalga oshirishda, mahalliy boshqaruv organlarining hududiy soliqlarni to'liq va o'z muddatida yig'ib olinishiga bo'lgan manfaatdorligi saqlanib qolinadi⁴.

Igudin ta'kidlashicha, byudjetni tartibga solishning tarkibiy qismi bo'lgan dotatsiya rag'batlantirish xususiyatiga ega emas va mahalliy boshqaruv organlarida qaramlik kayfiyatni keltirib chiqaradi hamda ularning xo'jalik tashabbuskorligini bo'g'ishga olib keladi. Mahalliy organlarning o'z hududidan yig'ilgan soliq resurslarini hajmini solishtirish mavjud bo'lganda, munitsipal byudjetlarga dotatsiyani maqsadli ajratilishi to'g'risidagi savol tug'ilishi tabiiy holatdir. Mazkur savol noaniq qarshi moliyaviy oqimlarning muammosi bilan uzviy bog'liq: munitsipal byudjetlar dastlab soliqlarni ajratma sifatida hududiy byudjetlarga yo'naltiradi, keyin dotatsiya ko'rinishida qaytarib oladi. Bunda sun'iy ravishda o'zini moliyaviy resurslar bilan

³ Федорова Е.А., Левина В.В., Печникова Т.В. Межбюджетные трансферты как инструмент Финансового регулирования доходов муниципальных бюджетов в Тульской области. Финансы и кредит. 29 (233) – 2006. ст. 18-25.

⁴ Н.А.Истомина. Налоговое регулирование финансовой базы местных бюджетов как элемент межбюджетных отношений и бюджетного планирования в регионе. Финансы и кредит 44 (476) – 2011. Ст. 66- 70.

ta'minlash imkoniyati bo'lgan hududlar hisobiga, dotatsion hududlar sonini oshiradi. Shu munosabat bilan, hududlar etarli darajada soliq salohiyatiga ega bo'lmaganda, mahalliy byudjetlarni soliqlardan ajratmalar hisobiga tartibga solish imkoniyati yo'qligi sababli, dotatsiya usulidan foydalaniladi (Polyak, 2009)⁵.

Govorushina fikricha, mahalliy byudjetlarning o'z daromadlarini pasayib ketishiga nafaqat byudjet va soliq qonunchiligidagi o'zgarishlar, balki olinayotgan moliyaviy yordamni qisqarishidan munitsipalitetlar manfaatdor emas. Moliyani samarasiz tashkil etish qaramlikning tendensiyalarini keltirib chiqaradi. Byudjet tizimining zvenolari o'rtasida umumdavlat pul resurslarini taqsimlanishi asosida mahalliy byudjetlarning mustaqillik tamoyili yotadi⁶.

Hududiy iqtisodiyot taraqqiyoti, mahalliy byudjetlar daromad va harajatlarini tartibga solish va barqarorligini ta'minlashning nazariy, ilmiy va amaliy jihatlarini bir qator iqtisodchi-olimlar tomonidan o'rganilgan va tadqiq qilingan. Xususan, Vahobov, Malikov mamlakat moliya tizimining sohalari va bo'g'inlarining guruhlanishi va davlat moliyasining tarkibiy qismi sifatida mahalliy moliyani ko'rsatib bergan, mahalliy moliyaning asosi sifatida mahalliy byudjetlar maydonga chiqishini ta'kidlagan⁷. Qiyosov mahalliy byudjetlar moliyaviy imkoniyatlarini oshirish uchun mahalliy ahamiyatga ega bo'lgan va byudjet tushumlari hisobidan qoplashga asoslangan qimmatli qog'ozlarni chiqarish, mahalliy hokimiyatlarga qarz majburiyatlarini jalb qilishning qonuniy asoslarini yaratish bilan bog'liq tavsiyalarni bergan⁸ bo'lsa, Xayriddinov har bir mahalliy ma'muriy hududdagi soliq tizimi tomonidan undirilishi lozim bo'lgan umumdavlat soliqlari bo'yicha soliq summalarining ma'lum bir qismini bevosita mahalliy byudjetlarning ixtiyorlariga birlashtirilgan daromadlar ko'rinishida qat'iy hissada va doimiy asosda qoldirilishi oldindan belgilanib qo'yilishi kerakligini, bunda asosiy urg'u daromadlarni byudjet tizimi bo'g'inlari o'rtasida qayta taqsimlashning asosiy kombinatsion variantlaridan biri bo'lgan me'yoriy ajratmalar tizimini takomillashtirishga qaratilmoqda, bozor iqtisodiyotining talablaridan kelib chiqqan holda, mahalliy byudjetlar daromad bazalari barqarorligini ta'minlashda ularning birlashtirilgan daromadlariga ustuvorlik berish maqsadga muvofiqligini ta'kidlaydi⁹.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida soliqqa tortish va mahalliy boshqaruv uyg'unligini ta'minlash soliqlarning yig'ulishida mahalliy boshqaruv organlarining faoliyatiga doir ilmiy tadqiqotlar o'rganildi. Maqolani shakllantirish jarayonida kuzatish va tanlab

⁵ Игудин А.Г. Некоторые проблемы межбюджетных отношений // Финансы. – № 5. – 2003. – С. 11.

⁶ Т. К. Говорухина. Формирование доходов бюджетов муниципальных образований.

⁷ Alimov I, Xalqaro amaliyotda byudjet federalizmi modellarining o'ziga xos xususiyatlari. <http://www.biznes-daily.uz> 30.07.2018 yil №7

⁸ Mamanazarov A.B., Mahalliy byudjet va soliq. Monografiya, Marifat-madadkor; Toshkent 2004 yil, 79-80 bet

⁹ Xayriddinov A.B. Mahalliy byudjetlar daromad bazalarining barqarorligini ta'minlash yo'llari. I.f.n. ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan diss. avtoreferati. –T.: 2011. –b. 13.

olish, ilmiy-nazariy, empirik kuzatuv usullardan foydalanilgan. Tadqiqot natijalarining ishonchligi tadqiqotda qo'llanilgan xorijiy va milliy statistik rasmiy manbalardan foydalanilgani bilan izohlanadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bizga ma'lumki, mahalliy byudjet - davlat byudjet tizimining alohida bo'g'ini hisoblanadi. Umumdavlat pul mablag'larining byudjet bo'g'inlari o'rtasida taqsimlashning asosini, mahalliy byudjetlar mustaqilligi, ularning davlat tomonidan moliyaviy qo'llab-quvvatlanishi, ular daromadlarini hududiy manbalar hisobiga shakllanishi tamoyillari tashkil etadi. Bugungi kundagi davlat moliyasini boshqarish islohotlarini o'tkazish jarayoni, avvalo, mahalliy o'z-o'zini boshqarish organlariga ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal etishda ular rolini oshirish va shu bilan bir vaqtda moliyaviy ta'minlashni mustahkamlash, butunlay yangi moliya, byudjet va soliq mexanizmini yaratish, byudjetlararo munosabatlarni tartibga solish va mahalliy byudjetlar ijrosi samaradorligini ta'minlashning yangi uslubiyoti va tamoyillarini aniqlashni o'z ichiga oladi.

Mahalliy byudjetlar daromadlari asosan mahalliy soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar, belgilangan normativlarga muvofiq umumdavlat soliqlari, bozorlardan tushadigan daromadlar hamda boshqa daromadlar hisobidan shakllantiriladi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining respublika byudjetidan ajratiladigan subvensiyalar, o'tkazib beriladigan daromadlar va dotatsiyalar mahalliy byudjetlarining daromadlari hisoblanadi¹⁰.

O'zbekiston Respublikasida soliq siyosatini takomillashtirish kontseptsiyasi asosida soliq qonunchiligini soddalashtirish, soliq yukini keskin pasaytirish, soliqqa tortiladigan ob'ektlarni to'liq qamrab olish va soliqlarning yig'iluvchanligini oshirish orqali tegishli byudjetlar daromad bazalarini mustahkamlash, mahalliy soliq va yig'implarning soliq ma'muriyatchiligi mexanizmlarini takomillashtirish yuzasidan keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Shuning uchun mahalliy byudjetlarning markaz byudjetiga qaramligini keskin kamaytirish, byudjetlararo munosabatlarni tubdan isloh qilish va mahalliy byudjetlar mablag'larini samarali boshqarishda joylardagi davlat hokimiyati organlarining mustaqil ish olib borishlarini ta'minlash muhim omil hisoblanadi.

Mahalliy davlat hokimiyati idoralari o'zlariga yuklatilgan vazifa va funktsiyalarni lozim darajada bajarishlari uchun byudjet daromadlaridan iborat barqaror moliyaviy-iqtisodiy asosga ega bo'lmog'i lozim.

Mahalliy byudjetlarning moliyaviy jihatdan mustaqilligiga bir qator omillar ham o'z ta'sirini ko'rsatadi. Jumladan: hudud iqtisodiyotining sust rivojlanishi; rivojlangan ishlab chiqarish, bozor va ijtimoiy infratuzilma tizimining mavjud emasligi; mahalliy

¹⁰ Mamanazarov A.B., Mahalliy byudjet va soliq. Monografiya, Marifat-madadkor; Toshkent 2004 yil, 79-80 bet

byudjetlarning soliq potentsialini qisqartirishga yo'naltirilgan davlat organlarining siyosati; mahalliy hokimiyat idoralariga tegishli mol-mulklardan samarali foydalana olmaslik (yoki mulkni byudjet tizimining boshqa bo'g'iniga o'tkazilishi sababli mulkning qisqarishi), daromad manbalarining etarli emasligi sababli mahalliy byudjetlar mustaqillik darajasining pasayishi; mahalliy soliqlar va yig'implarni to'lashda ayrim jismoniy va yuridik shaxslarning soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lashdan bo'yin tovlashi; mahalliy byudjetlarning ijrosi ustidan byudjet nazoratining sustligi; hududlarning iqtisodiy salohiyatidan, tabiiy va mehnat resurslaridan oqilona foydalana olmaslik kabilar mahalliy byudjetlar moliyaviy mustaqilligining ta'minlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi¹¹.

Shuningdek, hududlar iqtisodiyotida yuqori qo'shimcha qiymatga ega bo'lgan tarmoqlarning rivojlanmaganligi, hududlar iqtisodiy salohiyatiga nisbatan ijtimoiy majburiyatlarning salmoqliligi, yashirin iqtisodiyot darajasining yuqoriligi yoki norasmiy hamda yashirin faoliyat turlarining kengayishi natijasida soliqqa tortish bazasining nisbatan torayib borishi kabilar ham mahalliy byudjetlar mustaqilligini oshirishda salbiy ta'sir doirasiga ega.

O'z navbatida, mahalliy byudjetlar mustaqilligini oshirishda ularning daromad vakolatlari va xarajat majburiyatlari asosiy o'rinni egallaydi. Byudjet tizimi bo'g'inlari o'rtasida daromadlar vakolatlari va xarajatlar majburiyatlarining taqsimoti har bir mamlakatda mavjud bo'lib, moliya tizimi va fiskal siyosatiga bog'liq bo'ladi. Byudjet tizimi bo'g'inlari o'rtasidagi munosabatlar davlat tuzilishi shakliga qarab, turli tamoyillar asosida shakllanadi. Aksariyat mamlakatlarda markaziy va mahalliy byudjetlar o'rtasida, shuningdek, quyi byudjetlar o'rtasida ham daromadlar vakolatlari va xarajatlar majburiyatlarini belgilashda muammolar mavjud¹².

Mahalliy byudjetlardan iqtisodiyotga qilingan xarajatlar natijada hududlar iqtisodiyotini rivojlantirish bilan mahalliy byudjet daromadlar bazasini kengaytirishga xizmat qiladi. Mahalliy byudjetning daromadlar bazasini oshirishning ichki zaxiralari, hududlarda ishlab chiqarishning rivojlanishi, joylarda iqtisodiy islohotlarning amalga oshirilishi bilan chambarchas bog'liq. Mahalliy byudjetlar mavqeyini yanada oshirish hukumatimizning byudjet soliq siyosatining samaradorligini oshirishga xizmat qiladigan muhim omillardan biri hisoblanadi. mahalliy byudjetlar daromadlarining shakllanishidagi ushbu yo'nalishda aytish mumkinki, davlat byudjeti daromadlarining katta qismini joylarga berish, mahalliy byudjetlarni mustahkamlash zarur. Bu esa mintaqalar mustaqilligini oshirish, ularning tashabbuskorligini, byudjetning ijrosidan manfaatdorligini va bu boradagi ma'suliyatini oshirish imkonini beradi. Bundan tashqari, bu narsa mahalliy byudjetlarga tushumlarning yangi manbalarini qidirib

¹¹ Burxanov A, Hududlarda mahalliy byudjet daromadlari manbaini kengaytirish yo'llari (Qashqadaryo viloyati misolida) "iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali №1, Yanvar-fevral.

¹² Sirojiddinova Z.X., Byudjetlararo munosabatlar. O'quv qo'llanma. Toshkent – 2010. "infoCOM.UZ

topishga rag'batlantiradi, joylarda byudjet intizomini mustahkamlaydi. Markazlashtirilgan moliyaviy resurslardan samarali foydalanishda mahalliy byudjetlarning vakolatlarini oshirish bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan bo'lib qolmoqda va hozirgi olib borilayotgan islohotlar ham hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida mahalliy byudjetlarning vakolatlarini oshirishga yo'naltirilgan.

Mamlakatimizda byudjet ijrosining amaldagi holatidan kelib chiqqan holda, mahalliy byudjetlarning xukumatning iqtisodiy-ijtimoiy siyosatini amalga oshirishda mavqeini yanada ko'tarishga sabab bo'layotgan qator omillarni ajratib ko'rsatish mumkin. Masalan, mahalliy moliya organlarining byudjet ijrosidan manfaatdorligini oshirish va shuning asosida byudjet xarajatlarini to'g'ri va oqilona tarzda sarflanishi va byudjet tushumlarining yangi manbalarini qidirib topishga rag'batlantirishni ta'minlashdir.

Jamlangan byudjetning ko'rsatkichlari mamlakat markazlashtirilgan moliyaviy fondidan foydalanish va uni shakllantirishni tahlil qilishda muhim o'rinni egallaydi. O'zbekiston Respublikasi jamlangan byudjetining ko'rsatkichlari yordamida mamlakatda tuziladigan va davlat moliyaviy balansida aks ettiriladigan moliyaviy resurslarni markazlashtirish darajasi aniqlanadi. Jamlangan byudjet ko'rsatkichlari hisobisiz moliyaviy rejalashtirishni umumlashtirish mumkin emas, chunki davlat moliyaviy balansini va hududiy moliyaviy balanslarning ko'pgina ko'rsatkichlari jamlangan byudjetdan olinadi. O'zbekiston Respublikasining byudjet tizimi ikki bo'g'indan iborat¹³.


O'zbekistonda mahalliy byudjet daromadlari va xarajatlarini muvofiqlashtirish hozirgi bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida respublika va uning hududlarining rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Markazlashtirilgan rejalashtirish tizimidan bozor iqtisodiyotiga o'tish birinchi navbatda boshqaruv tizimi tarkibini o'zgartirishni va bu jarayonlar davomida mahalliy boshqaruv organlarining rolini oshirib borishni talab etadi. Mahalliy boshqaruv organlariga yuklatilgan vazifalarni samarali amalga oshirilishi ularning moliyaviy mablag'larga ega bo'lishlari bilan bog'liq. Albatta, mahalliy boshqaruv organlari faoliyatining asosiy moliyaviy asosi - mahalliy byudjetlar hisoblanadi. Davlat byudjeti tarkibida Respublikasi byudjeti, Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar, Toshkent shahri byudjetlari, shuningdek, davlat maqsadli jamg'armalari jamlanadi. O'zbekiston Respublikasi byudjeti bir butundir, ya'ni byudjet tizimi barcha bo'g'inlarga davlatning yagona davlat byudjetiga kiradigan Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahri, shahar va tumanlari byudjetlarining uzviy birligini bildiradi.

Mahalliy resurslarni samarali boshqarish, munitsipal iqtisodiyot sub'ektlarining o'zaro aloqalarini muvofiq ravishda tashkil etish, ishbilarmonlik faolligini oshirish,

¹³ Alimov I, Xalqaro amaliyotda byudjet federalizmi modellarining o'ziga xos xususiyatlari. <http://www.biznes-daily.uz> 30.07.2018 yil №7

hamda munitsipal xizmatlar ko'rsatish uchun moliyaviy imkoniyatlarni kengaytirish imkonini beradi. Respublikamizda bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida har bir sohada iqtisodiy islohotlar amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, byudjet sohasida olib borilayotgan islohotlarni alohida ta'kidlab o'tish mumkin. Har bir davlatning iqtisodiy qudrati shu davlatning mukammal byudjetga ega ekanligi bilan ham ifodalanadi. Respublikamiz mustaqillikka erishganidan so'ng mana shu o'tgan davr ichida chuqur iqtisodiy siyosat negizida barqaror moliyaviy tizimni, shuningdek, uning asosini tashkil etuvchi mahalliy byudjetni shakllantirish va ijro qilish sohasida muayyan ijobiy ishlar amalga oshirilmoqda. Jahon iqtisodiyoti integratsiyalashuvi jarayoni mamlakatimizning ham davlat moliyasini boshqarishni doimiy tarzda takomillashtirish zaruriyatini yuzaga keltirmoqda. Shunga ko'ra, mamlakatimiz davlat byudjetining ijrosini rivojlanayotgan va rivojlangan mamlakatlarda joriy etilgan va qisqa muddat mobaynida o'zining ijobiy natijasini ko'rsatayotgan g'aznachilik tizimi faoliyatini joriy qilish arafasida turibdi¹⁴.

Mamlakatimiz budjet-soliq siyosatida amalga oshirilayotgan tub islohotlar respublika iqtisodiyotini rivojlanishi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, bunda soliq yuki darajasining kamayib borishi iqtisodiy salohiyatning yildan-yilga o'sib borishiga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi omil hisoblanadi. Respublikada soliq yuki darajasining iqtisodiy o'sishga ta'sirini quyidagi 1-rasmdan kuzatish mumkin.



1-rasm. YaIMning o'sishi va soliq yukining YaIMdagi darajasi, (foizda)¹⁵

¹⁴ Якубов М.С., Жамалова Г.Б. Интеллектуальные модели и методы поддержки принятия управленческих решений в налоговой службе. Современные концепции научных исследований. 72я Международная научная конференция. «Евразийское Научное Объединение», № 2 (72), Февраль, 2021

¹⁵ O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi va Davlat statistika qo'mitasi rasmiy veb-saytida e'lon qilingan ma'lumotlar asosida muallif hisob-kitobi

Yuqoridagi 1-rasm ma'lumotlari mamlakatimizda 2010-2017 yillarda yalpi ichki mahsulotning o'sish ko'rsatkichlari 108,5 foizdan 107,8 foizgacha kamayganda, soliq yuki ham mos ravishda 21,9 foizdan 20,0 foizgacha (1,9 foizli punktga) kamaygan. Lekin, 2018-2020 yillarda mamlakatda yaratilgan YaIM oldingi 2017 yilga nisbatan 1,6 foiz punktga (107,8 foizdan 106,2 foizga) kamaygan bir paytda, soliq yuki esa aynan shu davrda o'rtacha 5,9 foiz punktga (20,0 foizdan 25,9 foizga) o'sgan. Bunga asosiy sabab, mamlakatimizda aynan shu davrdan boshlab soliq sohasida islohotlar boshlanib soliq rejimlari o'zgarganligi, xususan qishloq xo'jaligi korxonalari qo'shilgan qiymat solig'ini to'lashga, kichik biznes sub'ektlari mol-mulk va resurs soliqlarini to'lashga o'tganligi bilan izohlanadi.

Qayd etish joizki, 2020 yilda yalpi ichki mahsulot 2019 yilga nisbatan rejalashtirilgan 105,5 foiz o'sish o'rniga 101,6 foizni tashkil etgan. Lekin soliq yuki 2020 yilda yalpi ichki mahsulotga nisbatan 25,2 foizni tashkil qilgan. Bunga sabablarini koronavirus pandemiyasining mamlakatimiz iqtisodiyotiga ta'siri va Prezidentimiz tomonidan pandemiyaning salbiy oqibatlarini yumshatish maqsadida, tadbirkorlik sub'ektlariga berilgan 6732,8 mlrd. so'm miqdoridagi soliq imtiyozlari va preferensiyalari bilan izohlash mumkin¹⁶.

O'zbekiston Respublikasi byudjet tizimida muhim tarkibiy qismni mahalliy byudjetlar tashkil etadi. Mahalliy byudjetlar davlatning iqtisodiy va ijtimoiy vazifalarini amalga oshirishda, birinchi navbatda, davlat mablag'larini taqsimlash va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Bizning fikrimizcha, byudjetga "bu - turli darajadagi markazlashtirilgan pul mablag'lari fondini vujudga keltirish, taqsimlash va foydalanishga oid asosiy moliyaviy reja bo'lib, u tegishli davlat yoki mahalliy idora tomonidan ishlab chiqiladigan hamda tasdiqlanadigan yuridik hujjatdan iborat"¹⁷ deb ta'rif berilishida aynan mahalliy byudjetlarning o'ziga xos xususiyatlari namoyon bo'ladi.

Mahalliy byudjetlar tizimi mahalliy ehtiyojlarni to'laroq hisobga olish va ularni davlat markazlashtirilgan tartibda amalga oshiradigan chora-tadbirlar bilan to'g'ri muvofiqlashtirish imkonini beradi. Shuning uchun mahalliy hokimiyat organlari mahalliy byudjetga daromadlar kelib turishini va resurslardan maqsadli foydalanishdan manfaatdorlar, chunki joylarda iqtisodiyot va madaniyatning o'sish sur'atlari mahalliy zaxiralarni safarbar etishga, mablag'larni rejali sarflashga doir ishlarni tashkil etishga bevosita bog'liq bo'lib, bu esa, o'z navbatida, O'zbekiston Respublikasining davlat byudjetini muvaffaqiyatli bajarishga imkon yaratadi. O'zbekiston Respublikasi byudjet tizimining har bir bo'g'ini u yoki bu ijtimoiy ehtiyojlarni qondirish uchun mo'ljallangan turli pul jamg'armalarini tashkil etish, taqsimlash va ulardan foydalanishga qaratilgan o'ziga xos vazifalarni bajaradi.

¹⁶ www.soliq.uz Davlat soliq qo'mitasining "Itogi 2020 goda" maxsus jurnali. – B.11

¹⁷ Yo'ldoshev, Y. Tursunov. «Moliya huquqi». Toshkent. «Mehnat». 2021. -240b.

XULOSA

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, mahalliy boshqaruv organlari mahalliy byudjetga daromadlar kelib tushishini ko'paytirish hamda resurslardan optimal foydalanishdan manfaatdordirlar, chunki joylarda iqtisodiyot va madaniyatning o'sish sur'atlari mahalliy rezervlarni safarbar etishga, mablag'larni rejali sarflashga doir ishlarni tashkil etishga bevosita bog'liq bo'lib, bu o'z navbatida umuman O'zbekiston Respublikasining davlat byudjetini muvaffaqiyatli bajarishga imkon yaratadi.

Mahalliy byudjetlarning ijtimoiy iqtisodiy mohiyatini o'rganish va iqtisodiyotni boshkarish va tartibga solishdagi ishtirokni ko'rib chiqish jarayonida, daromadlarining tashkil topishini tahlil qilish, ushbu sohadagi muammolarni echishga qator xulosalar va takliflar berishga asos bo'ladi. Bular quyidagilardan iborat:

1. Mahalliy boshqaruvlarni davlat boshqaruvidagi xududlarni ijtimoiy-iqtisodiy tomondan boshqarishdagi rolini oshirish, hozirgi kunning asosiy masalalaridan biridir. Bunda maalliy boshqaruv organlarining moliya-byudjet huquqlarini, qonuniy asoslarini va ularning bu huquqlarini kengaytirish juda muhimdir. Konstitutsiyaning 100-moddasiga asosan, Mahalliy boshqaruvlarga byudjetlarini shakllantirish va uni ijro etish, Mahalliy soliqlar, yig'implarni belgilash, byudjetdan tashqari jamg'armalarni xosil qilish huquqlari berilgan. Ammo iqtisodiy islohotlarning hozirgi bosqichida rivojlangan, bozor io'tisodiga o'tayotgan davlatlarning tajribalarini chuqur o'rgangan holda, O'zbekistonning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, byudjet qonunchiligi rivojlantirilish zarurdir.

Bunda asosiy e'tibor quyidagilarga qaratilishi lozimdir:

- Mahalliy boshqaruv organlarining Mahalliy byudjetlarni rejalashtirish, tasdiqlash va bajarishdagi huquqlarini kengaytirishga;

- respublika byudjeti va mahalliy byudjetlarning o'zaro aloqalarini, qonuniy asoslarini yaratishga, ya'ni bunda turli byudjetlarning o'zaro majburiyatlari, huquqlari o'z aksini topishi lozim. O'zbekistonning unitar davlat ekanligidan kelib chiqib, asosiy e'tiborni Mahalliy byudjetlarni davlat byudjetining tarkibiy qismi sifatida mustaqilligining oshirishga;

- respublika byudjeti va Mahalliy byudjetlar o'rtasida daromadlar va xarajatlarning qonuniy chegarasini yaratishga qaratilishi lozim deb hisoblayman.

2. Mahalliy byudjetlarga umumdavlat soliqlaridan ajratmalar, Mahalliy xududlarda ushbu soliqlardan tushadigan tushum xijmiga nisbatan foizlarda belgilanadi. Foizlar yillar bo'yicha turli xildir.

Bu orqali Mahalliy boshqalarni ushbu soliqlardan tushadigan daromadlarini ko'paytirib borishdagi manfaatdorligi oshiriladi. Byudjet ijrosi davomida Mahalliy byudjetlarni daromadlar rejasini o'zgartirish orqali Mahalliy byudjetlar tomonidan amalga oshirilayotgan xarajatlarni daromadlar bilan ta'minlashga chek o'o'yilishi darkor. Buning uchun esa xududlarning soliqlarni yig'ish imkoniyatini to'g'ri belgilash

juda muhimdir. Shu sababli moliya organlarining, byudjet daromadlarini tushishi bilan shug'ullanuvchi tashkilotlar faoliyatini muvofiqlashtirishdagi huquqlarini kengaytirish lozim deb hisoblayman.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. –T.: “Adolat”, 2020
2. O'zbekiston Respublikasi Budget Kodeksi // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son.
3. O'zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida”gi 913-XII-son Qonuni // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son.
4. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 25-dekabrda “2021-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to'g'risida” O'RQ-657-son Qonuni [https:// lex.uz/docs/-5186044](https://lex.uz/docs/-5186044)
5. O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 30-dekabrda “2022-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to'g'risida” O'RQ-742-son Qonuni [https:// lex.uz/docs/-5801127](https://lex.uz/docs/-5801127)
6. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – Toshkent: O'zbekiston, 2017. – 104 b.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O'zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi to'g'risidagi” 2018-yil 29-iyundagi PF-5468-son farmoni
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamli O'zbekiston-2030” strategiyasini tasdiqlash va uni savaraliamalga oshirish tadbirlari to'g'risida”gi 2020 yil 6 oktyabrda PF-6079 sonli Farmoni
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 30 dekabrda “O'zbekiston Respublikasining “2022 yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to'g'risida”gi Qonuni ijrosini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-73-son qarori
10. O'zbekiston Respublikasining qonuni “Soliq ma'muriyatchiligi takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida”gi O'RQ-455-sonli qonuni, 2017 yil 18 dekabr
11. Vahobov A., Jo'raev A. Soliqlar va soliqqa tortish. Darslik. –T: “Sharq”, 2009. - 448 b.
12. Alimardonov M., To'xsanov Q. Soliq nazariyasi. –T.: “O'zbekiston Yozuvchilari yushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti”, 2005. -175 b.
13. Yahyoev Q.A. Soliqqa tortish nazariyasi va amaliyoti. Darslik. –T.: “Fan va texnologiyalar markazi”, 2003. -247 b.
14. Shernayev A.A, Budjetdan tashqari jamg'armalar moliyaviy resurslarini shakllantirish va taqsimlash amaliyotini takomillashtirish yo'nalishlari. «Студенческий вестник»: научный журнал. – № 1(99). Часть 6. Москва, Изд. «Интернаука», 2020. – с. 87-89.

15. Шернаев А.А. Налоговое планирование в системе обеспечения финансовой безопасности в акционерных обществах. «Интернаука»: научный журнал - № 12(141). Часть 2. Москва, изд. «Интернаука», 2020. - с. 43-45.
16. Шернаев А.А. Актуальность среднесрочного бюджетирования в Республике Узбекистан. Перспективы Инноваций, Экономики и Бизнеса – Прага, 2009. - №1. – С. 65-66.
17. Жамалова Г.Б. «Налоговая политика на макро и микроэкономическом уровнях, ее сущность и принципы разработки». International scientific and technical journal. Innovation technical and technology Vol.1, №.4. 2020.
18. Якубов М.С., Жамалова Г.Б. Интеллектуальные модели и методы поддержки принятия управленческих решений в налоговой службе. Современные концепции научных исследований. 72я Международная научная конференция. «Евразийское Научное Объединение», № 2 (72), Февраль, 2021
19. Мишина С.В. Налоговое регулирование доходов местных бюджетов. Бухгалтерский учет в бюджетных и некоммерческих организациях. 4(244)-2010. Ст.35-40.
20. Федорова Е.А., Левина В.В., Печникова Т.В. Межбюджетные трансферты как инструмент Финансового регулирования доходов муниципальных бюджетов в Тульской области. Финансы и кредит. 29 (233) – 2006. ст. 18-25.
21. Н.А.Истомина. Налоговое регулирование финансовой базы местных бюджетов как элемент межбюджетных отношений и бюджетного планирования в регионе. Финансы и кредит 44 (476) – 2011. Ст. 66- 70.
22. Игудин А.Г. Некоторые проблемы межбюджетных отношений // Финансы. – № 5. – 2003. – С. 11.
23. Т. К. Говорушина. Формирование доходов бюджетов муниципальных образований.
24. Alimov I, Xalqaro amaliyotda byudjet federalizmi modellarining o‘ziga xos xususiyatlari. <http://www.biznes-daily.uz> 30.07.2018 yil №7
25. Mamanazarov A.B., Mahalliy byudjet va soliq. Monografiya, Marifat-madadkor; Toshkent 2004 yil, 79-80 bet
26. Xayriddinov A.B. Mahalliy byudjetlar daromad bazalarining barqarorligini ta’minlash yo‘llari. I.f.n. ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan diss. avtoreferati. –Т.: 2011. –b. 13.
27. Sirojiddinova Z.X., Byudjetlararo munosabatlar. O‘quv qo‘llanma. Toshkent – 2010. “infoCOM.UZ
28. Burxanov A, Hududlarda mahalliy byudjet daromadlari manbaini kengaytirish yo‘llari (Qashqadaryo viloyati misolida) “iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali №1, Yanvar-fevral.
29. <http://www.lex.uz> – O‘zbekiston Respublikasi qonunlari bazasi sayti
30. <https://www.imv.uz> – Iqtisodiyot va moliya vazirligi sayti
31. <http://www.soliq.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi sayti
32. <http://www.stat.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi sayti